ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

O‘TLOQI ALLYUVIAL TUPROQLAR SHAROITIDA G‘O‘ZANI TOMCHILATIB SUG‘ORISHDA O‘TKAZILGAN TAJRIBAVIY TADQIQOT NATIJALARI

K.Sh.Xamrayev
Ilmiy rahbar: q.x.f.f.d., v.b.dotsent
Z.Z.Qodirov
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD)
M.B.Bobirova
Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik mutaxasisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining o‘tloqi–allyuvial, sho‘rlanishga moyil tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning “Buxoro-102” navi tuproqning CHDNSga nisbatan 70-80-65 foiz tartibda, suvtejovchi tomchilatib hamda plyonka osti tomchilatib sug‘orish texnologiyalari bo‘yicha dala tajribalari Buxoro viloyati, Kogon tumani hududida joylashgan “Qaxxor Qazoqobod” fermer xo‘jaligining o‘rta mexanik tarkibli tuproqlarida olib borilgan dala tadqiqotlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. o‘tloqi–allyuvial, sho‘rlanishga moyil tuproqlar, plyonka osti tomchilatib sug‘orish, dala tajribalari.

Аннотация. В данной статье полевые эксперименты по технологии капельного орошения с орошением в условиях лугово–аллювиальных, склонных к засолению почв Бухарской области гусиного сорта “Бухара-102” в порядке 70-80-65 процентов почв по отношению к Чднс, технологии капельного орошения с орошением капельным и пленочным грунтом проводятся в фермерском хозяйстве “Кахор Казакабад”, расположенном на территории Каганского района Бухарской области. мнение о полевых исследованиях, проведенных на почвах среднего механического состава сельского хозяйства ведутся.

Ключевые слова. лугово-аллювиальные, склонные к засолению почвы, капельное орошение под пленку, полевые опыты.

Annotation. In this article, field experiments on water–producing drip and Under-film drip irrigation technologies in the 70-80-65 percent Order of the Hawthorn variety Bukhara-102 in the conditions of grassland-alluvial, saline-prone soils of the Bukhara region, on the soils of the “Kashkhor Kazakabad” farm with medium mechanical composition, located on the territory of Kagan District, Bukhara region.

Keywords. Meadow-alluvial, saline-prone soils, drip irrigation under the film, field experiments.

Buxoro viloyatining o‘tloqi–allyuvial, sho‘rlanishga moyil tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning “Buxoro-102” navi tuproqning CHDNSga nisbatan 70-80-65 foiz tartibda, suvtejovchi tomchilatib hamda plyonka osti tomchilatib sug‘orish texnologiyalari bo‘yicha dala tajribalari Buxoro viloyati, Kogon tumani hududida joylashgan “Qaxxor Qazoqobod” fermer xo‘jaligining o‘rta mexanik tarkibli tuproqlarida 2023–2024 yillarda dala tadqiqotlari olib borildi.

1 – jadval

Tajriba tizimi

№ variant	Sug‘orish oldi tuproq namligi, ChDNS ga nisbatan %	Sug‘orish usuli	Hisobiy qatlam qalinligi, sm.
1	Ishlab chiqarish nazorati	Egatlab sug‘orish	Faktik o‘lchovlar

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

2	70-80-65	Tomchilatib sug‘orish	50-70-50 sm qatlamdagi suvning defitsiti
3		Plyonka osti tomchilatib sug‘orish	

Yuqorida nomi keltirilgan g‘o‘za navini ilmiy asoslangan suvtejovchi tomchilatib hamda plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish texnologiyalarining maqbul sug’orish tartibi quyidagi tizimda dala tajribalari olib borildi.

Tajriba tizimiga bo‘yicha dala tadqiqotlari 3 ta variantda va 4 ta qaytariq olib borildi. Dala tadqiiqot olib borish bo‘yicha o‘lchamlar: egatning uzunligi: L_e=100 metr, har bir egat orasidagi masofa: a=0,9 metr, bitta variantga kiradigan qatorlar: - 8 ta, 4 ta qator hisob-kitob ishlarini olib boradigan qatorlar hisoblanadi. Har tomondan ikkitadan qatorlar bu himoyalovchi qatorlar. Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalangan holda bir variantning ko‘lamini hisoblaymiz, ya’ni: 8x0,9x100=720m^2; takrorlanish maydoni 720x3=2160m^2, tadqiqot olib boriligan dalaning ko‘lami: 21600x4=8640 m^2 ga teng bo‘ldi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan dalaning joylashuv sxemasi.

Izoh: Bu yerda V1, V2, V3 - variantlar; Q1, Q2, Q3 va Q4 –qaytariqlar.

Tajriba maydonida quyidagi kuzatuv, o‘lchov va tahlillar olib borildi:

- tajriba dalasining tuproq sharoiti o‘rganildi. Buning uchun chigit ekishdan oldin tajriba dalasida sizot suvlarining chuqurligigacha to‘la tuproq kesimi kovlandi, kesimning genetik qatlamlaridan tuproq namunalari olindi va laboratoriya sharoitida uning mexanik tarkibi, tuproqdagi ozuqa moddalardan chirindi, azot, fosfor va kaliy hamda tuproq tarkibidagi tuzlar aniqlandi;

- tajriba dalasi tuprog‘ining hajmiy og‘irligi, har yili vegetatsiya boshi va oxirida 0–100 sm qatlam bo‘yicha balandligi 5 sm, hajmi 220,78 g/sm^3 bo‘lgan po‘lat silindr yordamida N.A.Kachinskiy usulida aniqlandi;

- tajriba dalasi tuprog‘ining suv o‘tkazuvchanligi, har yili vegetatsiya boshi va oxirida Dolgov uslubiga asoslangan silindrik doira bo‘yicha aniqlandi;

- tajriba dalasi tuprog‘ining dala nam sig‘imi, dala tajribasi boshlanishidan oldin Rozov uslubiga ko‘ra, 2x2 m o‘lchamdagi maydonchaga 2000–3000 m^3 hajmda suv to‘ldirilib, har 10 sm dan 0–100 sm chuqurlikgacha aniqlandi;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

- tajriba dalasi sizot suvlari sathining joylashish chuqurligi va minerallanish darajasi o‘rganildi. Buning uchun ikkinchi kaytariqning barcha variantlarida kuzatuv quduqlari o‘rnatildi. Har safar sug‘orishdan oldin va undan keyin kuzatuv quduqlaridan maxsus moslamalar yordamida yer osti suvidan namunalar olindi va laboratoriya sharoitida uning tarkibidagi tuzlar miqdorlari konduktometr “Progress-1T” o‘lchov qurilmasi bilan aniqlandi. Kuzatuv quduqlaridagi sizot suvlarining sath chuqurliklari har 10 kunda o‘lchab borildi;

- tajriba dalasi tuprog‘ining sug‘orish oldi tuproq namligini aniqlashda PSUEAITI tavsiyasiga asosan gullashgacha 0–50 sm, gullash-hosil to‘plash fazasida 0–70 sm, pishish fazasida 0–50 sm chuqurlikda termostat tarozi usulida aniqlandi;

- tajriba va nazorat dalalarida suv sarflari Chippoletti VCh-75, VCh-25 suv o‘lchagichlari yordamida o‘lchanib, suv o‘lchagichning xarakteristikasiga mos belgilangan formulalar asosida jadval shakllantirildi va unga muvofiq, hisoblash yo‘li bilan aniqlandi;

- tajriba dalalarida yetishtirilayotgan g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligini yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan qabul qilingan “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI 2007 yil) asosida olib borildi:

- g‘o‘zani ko‘chat qalinligi amal davri boshida va terim oldidan hisobiy qatorlardagi barcha ko‘chatlarni sanash yo‘li orqali aniqlandi;

Fenologik kuzatuvlar 1–50 gacha raqamlangan o‘simliklarda quyidagi muddatlarda olib borildi:

- 1-iyunga bo‘lgan g‘o‘zaning bo‘yi va chin barglarining soni hisoblandi;
- 1-iyulga bo‘lgan g‘o‘zaning bo‘yi, hosil shoxlari soni hisoblandi;
- 1-avgustga bo‘lgan g‘o‘zaning bo‘yi, hosil shoxlari va ko‘saklar soni hisoblandi;
- 1-sentabrga bo‘lgan g‘o‘zaning bo‘yi, ko‘saklar soni va ochilgan ko‘saklar soni hisoblandi;
- bir ko‘sakdagi paxta og‘irligi va g‘o‘zaning hosildorligi variantlar va qaytariqlardagi hisobiy qatorlardan terimlar bo‘yicha hisoblandi.

Barcha laboratoriya, dala, ishlab chiqarish tajribalari ulardagi kuzatuv, tahlil hamda hisoblar Paxta seleksiyasi, urug‘chiligini yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida qabul qilingan uslubiy qo‘llanmalar asosida o‘tkazildi. Shuningdek, tuproqning suv-fizik, agrokimyoviy xossalari hamda uning tarkibidagi tuzlar miqdorini aniqlash “G‘o‘za yetishtiriladigan sug‘oriladigan maydonlarda agrokimyoviy, agrofizikaviy va mikrobiologik xossalarini o‘rganish uslublari”ga binoan bajarildi. Tajribalar davomida kerakli natijalarga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нерозин С.А., Камбаров Б.Ф., Нуржанов С. Капельное орошение в условиях Самаркандской области Республики Узбекистан.,Сб. науч. работ по капельному орошению. Ташкент, 1995- с. 34-41.

2. Мухамеджанов Ш.Ш.Усманов А.У.Применение системқ капельного орошения для выращивания хлопчатника в условиях маломощных почв. Сб. научн. работ по капельному орошению. Ташкент 1995-с. 41-48.

3. A.Haydarov., D.Janibekov. Sug‘orish texnologiyalarini ko‘saklarning ko‘payishi va paxta hosilini pishib yetilishiga ta’siri // Qishloq xo‘jaligi ekinlari

genetikasi, seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtrish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. PSUYAITI-Toshkent, 2018 b. 441-446.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

4. Чулпанкулов Э. Д. Экспериментальные работы по определению суммарного испарения с опытных участков орошаемых капельным и бороздовым способом полива. Сб.науч.работ по капельному орошению. Ташкент,1995-С.141-150.

5. Любар Р.Г., Сосновский В.Р, Мухитдинов М.Х. Головная фильтрационная система для участка капельного орошения. Сб. науч. работ по капельному орошению. Ташкент, 1995 –С. 155-158.

6. Рузиев Т.У .К вопросу об эксплуатации системы капельного орошения в Заминском опытно-производственном хозяввйстве НПО САНИИРИ Сб. науч. работ по капельному орошению.Ташкент.1995, -С.158 -163